

Sirdaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 216 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 10 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 206 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 1 694,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 107,3 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 168,3 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 154,9%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 249,8 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,9%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 280,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 134,3%) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ■ Uyushmagan savdo


II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 1 158 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 23 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 135 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026-yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 280,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 14,0 % ga kamaygan.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 1 173,4 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 88,8 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 91,7 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori o'sish sur'ati hamda Oqoltin va (138,0 %) Sardoba (121,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 747 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 746 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 036,6 mlrd so'mga yetdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan 117,1 % ga o'sdi. Bunda savdo aylanmasining 91,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi–2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

Chop etishga mas'ul: Xizmatlar va savdo soxasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: A.Qurbonov Tel: +672367000 (2040)	Ijrochi: K.Yusupov Tel: +672367000 (2040) e-pochta: info@sirstat.uz	Manzil: Guliston sh., Birlashgan ko'chasi,62
--	--	--	--